

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚИШЛОҚ ВА СУВ
ХЎЖАЛИК ВАЗИРЛИГИ

АНДИЖОН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ИНСТИТУТИ

«Қишлоқ хўжалигида бухгалтерия ҳисоби ва аудит»

кафедраси

«Инвестициялаш ва лойиҳавий таҳлил»

фанидан

Реферат

Бажарди: “Фермер хўжаликларини бошқариш” таълим йўналиши
3-босқич 2-гуруҳ талабаси Саидов О.

Қабул қилди: катта ўқитувчи Т. Маманазаров

АНДИЖОН -2015

Mavzu: Bozor iqtisodiyoti sharoitida lizing asoslari

Kirish

- 1. Lizingning asosiy tushunchalari**
- 2. Lizing muddati**
- 3. Lizing operatsiyalarining shakli va turlari**
- 4. Lizingning keng tarqalgan turlari**
- 5. Lizingning ustunliklari.**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish borasida boshlangan tizimli islohotlarni, iqtisodiyotimizda, avvalambor, sanoat va qishloq xo'jaligida tub tarkibiy o'zgarishlarni so'zsiz davom ettirish, xususiy mulk, tadbirkorlik va kichik biznesni jadal rivojlantirish va bu soha vakillari manfaatlarini himoya qilish, makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishiga aylanishi zarur.

Joriy yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 7,8 foizdan iborat bo'lishini ta'minlash, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 8,2 foiz, qishloq xo'jaligida 6,1 foizga oshirish, chakana savdo aylanmasini 14 foiz, xizmatlar ko'rsatish hajmini 17,4 foizga ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda. Inflatsiya darajasini 5,5-6,5 foiz doirasida saqlab qolish, aholining real daromadlarini 9,5 foizga, o'rtacha ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni, soliq imtiyozlarini inobatga olgan holda, 15 foizga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Ana shu vazifalarni amalga oshirishda 2016-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturining hayotga tatbiq etilishi o'ta muhim o'rin tutadi. Nega deganda, bu dastur sanoatda, butun iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarning eng muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

2016-yil uchun belgilangan, umumiy qiymati 5 milliard dollardan ziyod bo'lgan 164 ta yirik investitsiya loyihasini belgilangan muddatlarda so'zsiz ishga tushirishni ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni kechiktirmasdan amalga oshirish lozim.

Birinchi navbatda, Toshkent – Samarqand – Buxoro tezyurar temiryo'l qatnovini yo'lga qo'yish bo'yicha ishlarni yakuniga yetkazish, Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasida har biri 450 megavatt quvvatga ega bo'lgan ikkita bug'-gaz turbinasi, Angren issiqlik elektr stansiyasida 150 megavatt quvvatga ega bo'lgan energiya bloki, Muborak gazni qayta ishlash zavodida 6 milliard kub metr gaz ishlab chiqaradigan uchta oltingugurt tozalash bloki, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 70 ming tonna mis eritish quvvatiga ega bo'lgan yangi pech qurilishini tugallash ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, Jizzax viloyatidagi sement

zavodining quvvatini 1 million tonnagacha portlandsement ishlab chiqarish darajasida kengaytirish, «Jeneral motors – O‘zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida yangi «Aveo» (T-250) yengil avtomobili ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda.

2016-yilda qishloq joylarda 1 million 800 ming kvadrat metrdan ziyod hajmdagi 13 mingta uy-joy barpo etish, uzunligi 900 kilometr ichimlik suvi, gaz va elektr tarmoqlari, 325 kilometr yo‘l qurish mo‘ljallanmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, 2016-yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, modernizatsiya qilish va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun 17 milliard 300 million dollar qiymatidagi investitsiyalar yo‘naltirish, ularning o‘sish sur‘atini 109,3 foizga yetkazish belgilangan. Ana shu investitsiyalarning 4 milliard dollardan ortig‘ini xorijiy investitsiyalar tashkil qiladi, bu 2015-yilga nisbatan 20,8 foiz ko‘pdir.

Shu borada muhim bir masalaga e‘tiboringizni alohida jalb etmoqchiman. Ya‘ni, ilgari tushimizda ham ko‘rmaydigan investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarini iqtisodiyotimiz taraqqiyotiga jalb etar ekanmiz, biz avvalo, shular hisobidan xorijdan olib keladigan texnika va texnologiyalar zamon talabiga javob beradigan eng yuqori darajada bo‘lishi shart.

O‘tgan yili shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Yangidan qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan ishlab chiqarish quvvatlari loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini, texnika va texnologiyalarni ekspert baholash agentligi tashkil etildi. Barcha buyurtmachilarning mazkur talablarga so‘zsiz rioya etishi birinchi navbatda ushbu agentlikdan qat’iy talab qilinadi.

Yaqinda Vazirlar Mahkamasining maxsus komissiyasi tomonidan yengil va to‘qimachilik sanoati korxonalarida ushbu masala o‘rganib chiqilganida, qator jiddiy kamchiliklar borligi aniqlandi. Bunday tekshiruvlarni davom ettirish kerak. Shu bilan birga, eskirgan, talabga javob bermaydigan asbob-uskunalarini olib kelish va ishga tushirish yuzasidan buyurtmachilarning javobgarligini kuchaytirish

bo'yicha Ma'muriy javobgarlik kodeksiga va Jinoyat kodeksiga aniq moddalar kiritish zarur.

2015-2019-yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish dasturining asosiy qoida va yo'nalishlarini so'zsiz bajarish bo'yicha boshlangan ishlarni 2016-yilda ham davom ettirish eng muhim vazifamizdir.¹

YUqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, hozirgi sharoitda lizing munosabatlarini o'rganish masalasi dolzarb mavzulardan biridir.

Ushbu kurs ishini yozishdan asoiy maqsad, olgan nazariy bilimlarimizni yanada mustahkamlashdan iborat. Bu maqsadga erishi uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Lizingning asosiy tushunchalari bilan tanishib chiqish;
2. Lizing muddatlarini o'rganib chiqish⁴
3. Lizing operatsiyalarining shakli va turlari bilan tanishish;
4. Lizingning keng tarqalgan turlari bilan tanishib chiqish;
5. Lizingning ustunliklarini o'rganib chiqishdan iborat.

Kurs ishini tarkibiy tuzilishi kirish, mavzu mohiyatini yoritib beruvchi 5 ta savol, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

¹ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ISLOM KARIMOVNING MAMLAKATIMIZNI 2015-YILDA IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YAKUNLARI VA 2016-YILGA MO'LJALLANGAN IQTISODIY DASTURNING ENG MUHIM USTUVOR YO'NALISHLARIGA BAG'ISHLANGAN VAZIRLAR MAHKAMASINING KENGAYTIRILGAN MAJLISIDAGI MA'RUZASI

1. Lizingning asosiy tushunchalari

Muomala va ishlab chiqarish sohasidagi o'zgarishlar, xo'jalik yuritish iqtisodiy sharoitlarida ro'y bergan chuqur o'zgarishlar iqtisodiyotimiz uchun moddiy bazani yangilashning an'anaviy bo'lmagan uslublarini joriy etishga majbur qiladi.

Bozor munosabatlari kredit-moliyaviy tizimni sog'lomlashtirish va davlat investitsiyalarini qisqartirishni nazarda tutadi. Iqtisodiy munosabatlarning turli sub'ektlari tomonidan qo'yilgan maqsadlarga erishishning turli xil variantlari paydo bo'ladi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning ob'ektiv zaruriyati hisoblanmish ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashishi, yangi yuqori samaradorlikka ega uskunalar yaratilishi va ekspluatatsiya qilinishini belgilab berdi. Bunday texnika qiymati doimiy tarzda o'sib bormoqda, bu esa uni yangilash jarayonini qiyinlashtiradi. Asosiy vositalarni davriy tarzda almashtirilib turishni nazarda tutadigan, ma'naviy eskirish sur'atlari tezlashib ketdi. Avj olgan raqobat esa, rivojlangan mamlakatlarning ko'p sonli korxonalarini mavjud ishlab chiqarish vositalaridan yanada intensivroq foydalanishni, va yangi uskunalarni xarid qilishning yangi usullariga murojaat qilishga majbur qildi.

Uskunalarga ega bo'lishning ikkita usuli mavjud – uni xarid qilish va lizing.

Ichki va tashqi bozorlar uchun keskin raqobat sharoitida, uskunalarning nafaqat texnik tavsiflari, balki mazkur texnologiyalar taklif etilayotgan moliyaviy shartlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Lizing har ikkala shartni bajarish imkonini beradi.

20-asrning 60-yillariga qadar lizingga faqatgina yer va ko'chmas mulk olinardi. So'nggi 30 yil mobaynida lizing ancha ommaviylashib ketdi. Bugungi kunda deyarli barcha narsani ijaraga olish mumkin. Samolyot, avtomobil, kompyuter yoki traktor sotib olish o'rniga, korxona uni lizingga olishi mumkin.

Hozirgi kunda, O'zbekistonda, lizing o'zining munosib o'rniga ega bo'lmoqda. Bu mamlakatimizdagi moliyaviy faoliyatning yosh, ammo juda ham istiqbolli yo'nalishidir. Mablag'larning doimiy yetishmovchiligi, uskunalarning eskirganligi va ishlab chiqarish sur'atlarining pasayib ketayotganligi, hamda o'sib borayotgan

raqobatdoshlik sharoitida, lizingni rivojlantirish juda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyotida, «lizing» atamasi, uzoq muddat iste'mol qilinadigan tovarlarni ijaraga berishga asoslangan shartnomalarda foydalaniladi.

Ijara shartnomasining muddatiga qarab, ijara operatsiyalarining uchta turini ajratish mumkin:

- qisqa muddatli ijara (renting) – bir kundan bir yilgacha bo‘lgan muddatga;
- o‘rta muddatli ijara (xayring) – bir yildan uch yilgacha bo‘lgan muddatga;
- uzoq muddatli ijara (lizing) – uch yildan yigirma yilgacha bo‘lgan muddatga.

Shuning uchun ham, lizing deganda, odatda, shartnoma muddati davomida mulkchilik huquqi ijaraga beruvchida saqlanib qoladigan, ijaraga beruvchi tomonidan ijaraga oluvchi uchun, ishlab chiqarishda foydalanish maqsadida xarid qilingan mashina va uskunalarning uzoq muddatli ijarasi tushuniladi.

Lizingning yana bir ta'rifi quyidagicha: lizing – bu shunday ijara shartnomasiki, unda lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) o‘ziga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish, savdo va ombor maqsadida foydalaniladigan mashina va uskunalarni belgilangan mukofot uchun, muayyan muddatga lizing oluvchiga (ijaraga oluvchiga) maxsus foydalanishga topshiradi. Shartnomada belgilangan mukofot, ijaraga beruvchi tomonidan, bank daromadi va mulk amoritizatsiyasini hisobga oluvchi, mablag‘ jalb etish qiymatini to‘liq qoplovchi foiz stavkasini o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari lizingni, uchinchi shaxs uchun mulk xarid qiluvchi va unga uzoq muddatga ijaraga beruvchi, ixtisoslashgan lizing kompaniyasi vositachiligida asosiy vositalarga qo‘yilmalarni moliyalashtirishning maxsus shakli sifatida ham ko‘rish mumkin. Bunda lizing kompaniyasi ijaraga oluvchiga kredit beradi deyishimiz ham mumkin. Shuning uchun ham lizingni ayrim hollarda «kredit-ijara» deb ham atashadi. Oldi – sotdi shartnomasidan farqli ravishda, lizingda, mulkchilik huquqi ijaraga beruvchida saqlanib qoladi, lizing oluvchi esa uni vaqtinchalik foydalanishga oladi xolos. Lizing shartnomasi muddati tugagandan so‘ng, lizing oluvchi shartnoma ob'ektini kelishilgan narxda sotib olishi, lizing shartnomasini uzaytirishi yoki shartnoma ob'ektini qaytarib berishi mumkin.

Iqtisodiy nuqtai nazardan lizing, uskuna sotib olish uchun berilgan kreditga o'xshash. Asosiy fondlarni kreditlashda, qarz oluvchi qarzni qoplash hisobiga belgilangan to'lovlarni amalga oshirib boradi, bunda bank kredit qaytarilishini ta'minlash maqsadida kredit berilgan ob'ektga bo'lgan mulkchilik huquqini qarz to'liq qoplanguncha o'zida saqlaydi. Lizingda ijarachi, shartnoma muddati tugagandan so'ng va ijaraga olingan mulkning to'liq qiymati to'langandan keyingina ijarag olingan mulk egasiga aylanadi. Ammo bunday o'xshashlik faqatgina *moliyaviy lizing* uchun xos.

Lizingning ikkinchi – *operativ (tezkor)* – turi, ko'proq oddiy uskuna ijarasiga o'xshash.

Lizing beruvchi va lizing oluvchi pul shaklidagi emas, tovar shaklidagi kapital bilan ish ko'radilar, bu esa lizingni investitsiyalashga yaqinlashtiradi.

Lizingning iqtisodiy mohiyati, sotilishi mahsulotning sifati va iste'molchida mablag' mavjudligi bilan belgilanadigan, yuqori darajada tayyor, mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda undan foydalanishni yanada samarali qiladi.

Yuridik shakli bo'yicha lizing bitimi investitsiyaviy qiymatliklarning uzoq muddatli ijarasini o'ziga xos turidir. Lizing operatsiyasining aniq ta'rifi muhim amaliy ahamiyatga ega, chunki lizing qonun tomonidan o'rnatilgan qoidalarga muvofiq rasmiylashtirilmasa, bu lizing bitimi ishtirokchilari uchun salbiy moliyaviy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Lizing bitimining asosini quyidagilar tashkil etadi:

- bitim ob'ekti;
- bitim sub'ekti;
- lizing to'lovlari;
- lizing bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar.

Lizing bitimining ob'ekti deb, ishlab chiqarish siklida yo'qolib ketmaydigan har qanday moddiy boylikka aytish mumkin.

Shu jumladan, korxonalar va boshqa mulk majmualari, bino, inshoot, uskuna, transport vositalari va tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan boshqa ko'char va ko'chmas mulk.

Odatda lizingga quyidagilar ko‘p olinadi:

- transport uskunalari (transport samolyotlari, avtomobillar, dengiz kemalari, temir yo‘l vagonlari va h.);
- aloqa vositalari (radiostansiyalar, sputniklar, pochta jihozlari va h.);
- qishloq xo‘jalik texnikasi (traktor, seyalka va h.);
- qurilish uskunalari (kranlar, ekskavatorlar va h.).

Lizing bitimi sub'ekti deb, bitim ob'ektiga bevosita munosabatda bo‘lgan barcha tomonlar aytiladi. Ular bevosita va bilvosita ishtirokchilarga ajratiladi.

Lizing bitimining bevosita ishtirokchilariga quyidagilar kiradi: lizing firmalari va kompaniyalari (lizing yoki ijara beruvchilar); ishlab chiqarish (sanoat yoki qishloq xo‘jaligi), savdo va transport korxonalari va aholi (lizing yoki ijaraga oluvchi); bitim ob'ektlarini yetkazib beruvchilar – ishlab chiqarish (sanoat) va savdo kompaniyalari.

Lizing bitimining bilvosita ishtirokchilari bo‘lib, lizing beruvchini kreditlovchi tijorat va investitsiyaviy banklar, hamda bitimning kafolati sifatida chiquvchi sug‘urta kompaniyalari, brokerlik va boshqa vositachilik firmalari xizmat qilishi mumkin.

Ijara turidan qat'iy nazar (qisqa, o‘rta yoki uzoq muddatli), ijara munosabatlarini amalga oshiruvchi barcha firma «lizing» firmalari deb aytiladi. O‘z faoliyati bo‘yicha ular ixtisoslashgan va universal firmalarga ajratiladi.

Ixtisoslashgan kompaniyalar odatda, bir turdagi tovarlar (yengil avtomobillar, konteynerlar) yoki standart shakldagi bir guruhga mansub tovarlar (qurilish uskunalari, tekstil korxonalari uchun uskunalari) bilan faoliyat yuritadilar. Bunday firmalar, odatda, tovar yoki uskunalarning muayyan zaxirasiga ega bo‘lib, mijozning birinchi talabi bilanoq, ularni yetkazib beradilar. Uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni normal ekspluatatsion holatda saqlanishi ham lizing kompaniyalari zimmasida bo‘ladi.

Universal lizing firmalari xilma-xil turdagi mashina va uskunalarni ijaraga bergan holda, uskuna yetkazuvchini tanlash bilan ijaraga oluvchining o‘zi

shugʻullanadi. Bunda lizing beruvchi moliyaviy bitimlarni tashkil etuvchi muassasa rolini oʻynaydi.

2. Lizing muddati

Lizing davri deganda, lizing bitimining amal qilish muddati tushuniladi.

Muddat belgilashda quyidagilar e'tiborga olinadi.

Uskunalar xizmat muddati texnik-iqtisodiy tavsiflar bilan aniqlanadi.

Shartnoma muddati uskunani mumkin bo'lgan ekspluatatsiyasi muddatidan oshmasligi lozim. Uskuna amortizatsiyasi davri hukumat organlari tomonidan belgilanadi. Moliyaviy lizingda shartnoma muddati, odatda, amortizatsiya davriga teng bo'ladi. Ishlab chiqarayotgan mahsuloti qisqa muddatlarda yangilanuvchi tarmoqlarda, lizing ob'ektining unumdorliroq yoki arzonroq analogini ishlab chiqarish sikli muhim hisoblanadi.

Inflyasiya jarayonlarining o'zgarishi. Tez o'suvchi inflyasiya sharoitida, lizing beruvchi uchun belgilangan narxlarda uzoq muddatga shartnoma tuzish foydali emas. Ssuda kapitali bozorlari kon'yunkturasi va uni rivojlanish yo'nalishlari. Lizing kompaniyalari bank kreditlaridan keng miqyosda foydalanganligi sababli, lizing foizining asosi bo'lgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining darajasi shartnoma muddatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ammo deyarli har qanday lizing shartnomasi quydagi elementlarni o'z ichiga olishi lozim: shartnoma tomonlari, shartnoma predmeti, amal qilish muddati, tomonlarning huquq va majburiyatlari, lizing to'lovlari shartlari, bitim ob'ekti sug'urtasi, lizing shartnomasini bekor qilish tartibi.

3. Lizing operatsiyalarining shakli va turlari

Lizing turlarini ajratishda, quyidagilarni tavsiflovchi belgilarga asoslanadi:

- ijaraga olinadigan mulkka munosabati;
- lizing operatsiyasini moliyalashtirish turi;
- lizing mulkining turi;
- lizing bitimi ishtirokchilarining tarkibi;
- lizingga beriladigan mulk turi;
- lizing mulkining qoplanish darajasi;
- lizing operatsiyalari amalga oshiriladigan bozor sektori;
- soliq, bojxona va amortizatsion imtiyozlarga munosabati;
- lizing to'lovlari tartibi.

Lizing turkumlanadi:

1. Mulk turi bo'yicha: ko'chadigan mulk lizingi (uskuna, texnika, avtomobillar, kemalar, samolyotlar va h.), shu jumladan yangi va foydalanilgan. Ko'chmas mulk lizingi (ijaraga beruvchi bino va inshootlarni ijaraga oluvchi buyurtmasiga ko'ra barpo etadi yoki sotib oladi). Foydalanilgan lizing mulki.

2. Mulkni qoplanish darajasi bo'yicha:

- to'liq qoplanadigan lizing (shartnoma amal qilish muddati davomida ijaradagi mulkning qiymati to'liq to'lanadi);

- to'liq qoplanmaydigan lizing, bunda bitta lizing shartnomasi amal qilishi davrida lizingga berilgan mulkning qisman amortizatsiyasi amalga oshiriladi va uning bir qismigina qoplanadi.

3. Amortizatsiya darajasiga qarab:

- to'liq;

- to'liq bo'lmagan.

4. Ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi bo'yicha:

- sof (mulkka xizmat ko'rsatish xarajatlarini lizing oluvchi to'laydi);

- to'liq (mulkka xizmat ko'rsatish xarajatlarini lizing beruvchi to'laydi).

Lizingning ushbu turidan, odatda, mahsulot ishlab chiqaruvchilar foydalaniladi.

Qiymati bo'yicha to'liq lizing eng qimmat lizing turlaridan biri hisoblanadi.;

- qisman, (xizmatlarning qisman to'plami bilan), bunda lizing beruvchiga mulkka xizmat ko'rsatish bo'yicha ayrim funksiyalargina yuklanadi.

5. Bozor sektori bo'yicha:

- ichki (barcha bitim ishtirokchilari bitta mamlakatda joylashgan);
- xalqaro (tashqi), bunda bitim ishtirokchilarining kamida bittasi boshqa mamlakatga tegishli. Agarda lizing ishtirokchilarining biri chet el korxonasi bilan qo'shma faoliyat olib borgan taqdirda ham lizing xalqaro hisoblanadi.

O'z navbatida tashqi lizing import, lizing beruvchi yet ellik bo'lsa, va eksport, lizing oluvchi chet ellik bo'lsa, turlariga bo'linadi.

6. Lizing to'lovlarining tavsifi bo'yicha:

- pul to'lovlari bilan (barcha to'lovlar pul shaklida);
- kompensatsion to'lovlar bilan (ijaradagi uskunalarda ishlab chiqarilgan tovarlarni yetkazib berish);
- qo'shma to'lov bilan.

7. Soliq va amortizatsiya to'lovlariga munosabati bo'yicha quyidagicha farqlanadi:

- amaldagi (mulk, daromad solig'i, Q+S, turli xil yig'imlar, tezlashtirilgan amortizatsiya bo'yicha imtiyozlardan foydalangan holda);
- fiktiv (imtiyozlardan foydalanilmagan);
- qo'shma.

8. Bitim ishtirokchilarining tarkibi bo'yicha:

- to'g'ridan-to'g'ri, bunda mulk egasi (yetkazib beruvchi) ob'ektni mustaqil lizingga topshiradi (ikki tomonlama bitim). Mazmuni bo'yicha bunday bitimni an'anaviy lizing bitimi deb bo'lmaydi, chunki unda lizing kompaniyasi ishtirok etmaydi.

- vositali, bunda mulkni lizingga topshirish vositachi orqali amalga oshiriladi. Bunday lizing bitimi an'anaviy lizing operatsiyasiga o'xshash, chunki unda lizing beruvchi, lizing oluvchi va yetkazib beruvchi mustaqil tarzda ishtirok etadi.

4. Lizingning keng tarqalgan turlari

Moliyaviy (kapital) lizing ijaraga oluvchi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar ijaraga olinayotgan uskunaning amortizatsion qiymatini to'liq qoplashini nazarda tutadigan uzoq muddatli kelishuv. Bunday kelishuvlar ijarani muddatidan oldin tugatilishini nazarda tutmas ekan, davriy to'lovlarni to'g'ri aniqlash, mulk egasiga mulkni xarid qilish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha xarajatlarni qoplash, hamda talab etilgan daromadlilik darajasini ta'minlash imkonini beradi. Lizingning ushbu turida, mulkka xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha xarajatlari ijaraga oluvchi zimmasiga yuklanadi. Ko'pgina hollarda, bunday kelishuvlar ijara muddati tugagandan so'ng, ijarachiga mulkni imtiyozli yoki qoldiq qiymati bo'yicha sotib olish huquqini beradi.

Operativ (tezkor) lizing – bu lizingni shunday turiki, unda lizing beruvchining ijaraga berayotgan ob'ektni sotib olish va unga xizmat ko'rsatish xarajatlari bitta lizing shartnomasi to'lovlari bilan qoplanmaydi, bu esa uni ijaraga bir necha marotaba berish zaruriyatini keltirib chiqadi.

Odatda bunday shartnoma 2-5 yilga tuziladi. Operativ (tezkor) lizingda ob'ektga ziyon yetkazish va yo'qotish xavfi lizing beruvchi zimmasiga yuklatiladi. Lizing to'lovlari stavkasi esa, xarajatlarni qoplash kafolati bo'lmaganligi sababli, moliyaviy lizingga nisbatan yuqori bo'ladi.

Operativ lizingning asosiy ob'ektlariga uskunalarining tez eskiradigan (kompyuterlar, nusxa ko'chirish va ko'paytirish texnikasi va b.) va doimiy servis xizmati ko'rsatilishini talab qiladigan, texnik murakkab turlari (yengil va yuk avtomobillari, havo kemalari, temir yo'l va dengiz transporti) kiradi.

Umuman olganda, operativ lizing shartlari ijaraga oluvchi uchun nisbatan foydaliroq. Xususan, ijarani muddatidan oldin tugatish imkoniyati ma'naviy eskirgan uskunalaridan tezda voz kechish va ularni nisbatan yangi va samaraliroq uskunalar bilan almashtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, noqulay vaziyat holatlar sodir bo'lganda, ijaraga oluvchi, uskunalarni egasiga qaytargan holda, mazkur faoliyat turini tezda to'xtatishi, va

ishlab chiqarishni to'xtatish yoki qayta tashkil etish xarajatlarini ancha kamaytirishi mumkin.

Bir martalik loyiha yoki buyurtmalarni bajarishda esa, operativ lizing, keyinchalik kerak bo'lmaydigan uskunalarni sotib olishdan xoli qiladi.

Qaytarma lizing – shunday ikkita bitim tizimidan iboratki, unda mulk egasi o'z mulkini ikkinchi bir shaxsga sotadi, va bir vaqtning o'zida ushbu mulkni undan uzoq muddatli ijaraga oladi.

Bunda xaridor sifatida har qanday moliyaviy institut (bank, sug'urta kompaniyasi, investitsiyaviy jamg'arma, lizing operatsiyalariga ixtisoslashgan firma) chiqishi mumkin.

Lizingning bunday turi natijasida faqatgina mulkdor o'zgaradi, mulkdan foydalanuvchi esa o'zgarmasdan turib, qo'shimcha moliyaviy mablag'lardan foydalanish imkoniga ham ega bo'ladi. Investor esa, mulkning oldingi egasiga kredit bergan holda, ta'minot sifatida mulkchilik huquqini oladi.

Bunday operatsiyalar korxonalar moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Ulushli lizing (bir nechta ishtirokchilar bilan). Lizingning ushbu turi murakkab va yirik miqyosdagi ob'ektlarini (aviatexnika, dengiz va daryo kemalari, temir yo'l va harakatlanuvchan tarkib va h.) moliyalashtirish shakli sifatida keng tarqalgan. Lizingning bu turi guruhli yoki aksiyadorli lizing deb ham yuritiladi. Bunday lizing ko'p tarmoqli moliyalashtirishga ega bo'lganligi uchun, eng murakkab hisoblanadi. Ulushli lizingning o'ziga xos xususiyati shundaki, lizing beruvchilar lizing ob'ektini sotib olish uchun lozim bo'lgan summaning bir qismini beradilar xolos. Lizing ob'ekti shartnomaviy qiymatining qolgan qismi kreditorlar (banklar, boshqa investorlar) tomonidan moliyalashtiriladi.

Sublizing – lizing munosabatlarining shunday turiki, unda lizing ob'ektidan foydalanish huquqi uchinchi tomonga (odatda u ham lizing kompaniyasi bo'ladi) o'tkaziladi. Asosiy ijaraga beruvchi ijara to'lovlarini olishda ustunlik huquqiga ega bo'ladi. Sublizingda, sublizingni amalga oshiruvchi shaxs lizing ob'ektini lizing

shartnomasi bo'yicha oladi, va sublizing shartnomasi bo'yicha vaqtinchalik foydalanishga topshiradi.

Revolver lizing. Boshqacha qilib aytganda uskunalarni ketma-ket almashtirilishini nazarda tutadigan lizing.

Lizing oluvchiga, texnologiya bo'yicha, ketma-ket tarzda turli xil uskunalar lozim bo'lganda foydalaniladi. Bunday vaziyatlarda, lizing oluvchi, lizing shartnomasiga muvofiq, muayyan muddatdan so'ng ijaraga olingan uskunani boshqa lizing ob'ektiga almashtirish huquqiga ega bo'ladi.

5. Lizingning ustunliklari.

Uskunalarga ega bo'lishning boshqa turlariga nisbatan (to'lovni kechiktirib amalga oshirish, bank krediti va h.) lizing bir qator muhim ustunliklarga ega:

1. Lizingda, to'g'ridan-to'g'ri xarid qilishdan farqli ravishda, uskuna sotib olish uchun katta miqdordagi aylanma mablag'larini ishlab chiqarishdan ajratgan holda jalb etish talab qilinmaydi. Uskunadan foydalanish uchun lizing to'lovlari vaqt bo'yicha, taxminan uskuna qoplanish muddatiga teng bo'lgan, muddatga (lizing shartnomasi muddati) cho'ziladi. Uskunadan foydalanish uchun to'lovlar undan foydalanish muddatiga muvofiq bo'ladi va korxona daromad olishidan boshlab to'lanadi. Lizing muddatlari uskuna qoplanishi muddatiga odatda teng bo'ladi.

2. Lizingga qarzni to'lash grafigini tuzish borasida katta egiluvchanlik xosdir. Uskuna ekspluatatsiyaga tushirishga qadar korxona hyech qanday to'lovlarni amalga oshirmaydi, shuningdek lizing to'lovlari grafigida to'liq qo'vvatga o'tish sur'atlari va ishlab chiqarishning mavsumiyligini ham aks ettirish mumkin.

3. Lizingda uskuna, tomonlarning kelishuviga ko'ra, lizing kompaniyasi yoki lizing oluvchi balansida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi mumkin. Bu lizing oluvchiga o'z faoliyati tuzilmasini shakllantirishda ko'proq imkoniyat beradi.

4. Lizingga beriladigan uskunalar nisbatan tezlashtirilgan («3» koeffitsientgacha) amortizatsiyani qo'llash imkoniyati. Bu soliqqa tortish maqsadida uskuna qiymatini uch marotaba tezroq xarajatlarga chiqarib tashlash va mulk solig'ini uch marta kamaytirish, mulkdan foydalanish rentabelligini oshirish yoki lizing shartnomasi muddati tugagandan so'ng lizing ob'ektini bozor bahosida sotib daromad olish imkonini beradi.

5. Lizing bitimini moliyalashtirish uchun kredit resurslarini izlash lizing kompaniyasi zimmasiga yuklatiladi.

6. Investitsiyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda mijozga texnik yordam ko'rsatish.

7. Lizing ob'ekti asosiy ta'minot sifatida xizmat qiladi. Lizing ob'ektining likvidligi yetarlicha bo'lmagan va lizing bitimi yetarlicha ta'minlanmagan bo'lsa, lizing kompaniyasi qo'shimcha ta'minot talab qilishi mumkin.

8. Pul mablag'lari chiquvchi oqimning kamayishi. Uskunani xarid qilish bilan bog'liq barcha xarajatlar to'la hajmda tannarxga kiritiladi. Bu soliqqa tortiladigan bazani ancha kamaytiradi va aylanma vositalarni saqlab qoladi.

9. Lizing korxonaga kichik bir martalik xarajatlar bilan zamonaviy uskuna va texnikalarni yetarlicha hajmda olish imkoniyatini beradi. Sir emaski, o'z ishlab chiqarishini zamonaviy uskunalar bilan jihozlash istagida bo'lgan ko'pgina o'zbek korxonalari uni xarid qilish uchun mablag'lar yetishmasligi muammosiga duch keladilar, yuqori texnologik uskunalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar esa o'z mahsulotini sotish borasida qiyinchilik sezadilar. Moliyaviy vositachi sifatida xizmat qiluvchi lizing kompaniyasi turli xildagi uskunalar xaridori va yetkazib beruvchilarga samarali faoliyat yuritish imkonini yaratadi. Bunda ishlab chiqarishga jalb etilgan mablag'larni jamlash zaruriyati umuman paydo bo'lmaydi.

10. Korxona kredit jozibadorligini saqlab qolish. Lizing o'z va qarz kapitalining optimal nisbatiga erishish imkonini beradi.

11. Lizing korxonaga, vaqt oralig'i mobaynida o'z pul oqimlarini aniq rejalashtirish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa

Har bir korxona faoliyatining muhim sohalaridan biri bo'lib, uzoq vaqt davomida korxonaga daromad keltirishi nazarda tutilgan, investitsion operatsiyalar, ya'ni, biror loyihani amalga oshirish uchun pul mablag'lari kiritish bilan bog'liq operatsiyalar, hizmat qiladi. Bunday loyihalarning natijalari quyidagicha bo'lishi mumkin: bozor talabini qondirish uchun muayyan mahsulot ishlab chiqarish; yanada zamonaviy uskuna va texnologiyalardan foydalanish asosida, mahsulot ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish; ishlab chiqarish resurslaridan oqilona (tejamkor) foydalanish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash; ekologik xavfsizlikni oshirish; turli xil xizmatlarni ko'rsatish, shu jumladan konsultatsion (maslahat), axborot, ijtimoiy va hokazo.

Har bir investitsiyaviy loyihani iqtisodiy baholash, bozor faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini, xususan loyihani tavsiflovchi ko'pgina ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligi, so'nggi natijaga erishish noaniqligi, loyiha ishtirokchilari manfaatlarining sub'ektivligi, va bularning oqibatida loyihani baholash mezonlari ko'pligini, hisobga olishi lozim.

Investitsiyaviy loyihani iqtisodiy baholashda, uning quyidagi dinamik tavsiflarini e'tiborga olish lozim:

- ishlab chiqarilayotgan tovar talabidagi mumkin bo'lgan o'zgarishlar va tegishli tarzda ishlab chiqarish hajmlarining o'zgarishi;
- ishlab chiqarish hajmlarini oshirish jarayonida, ishlab chiqarish xarajatlarining rejalashtirilgan pasayishi;
- iste'mol qilinayotgan resurslar narxlarining kutilgan o'zgarishlari;
- har bir davrdagi investitsiyalar uchun moliyaviy manbalarga ega bo'lish imkoniyati.

Korxona o'z tovarini etkazib berish hajmlarini oshirar ekan, ushbu tovar narxining tushib ketishi kabi bozor ta'sirini oldini olishi lozim. Ayrim ishlab chiqarish resurslariga bo'lgan talabning oshishi, ularning narxi oshib ketishiga olib kelishi mumkin. Raqobatdosh korxonaning kelajakdagi ilmiy-texnik

yutuqlari, korxona tomonidan bugun o'zlashtirilayotgan mahsulot sifatini yo'qqa chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham investitsiyaviy loyihalar uchun quyidagi qoida amal qiladi.

Investitsiyaviy loyiha ko'rsatkichlarining istiqbolda ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlari, prognoz qilinishi va yetarlicha uzoq vaqtni qamrab oladigan iqtisodiy hisob-kitoblarga kiritilishi lozim.

Prognoz baholaridan foydalanish har doim ob'ektiv tarzda tavakkalchilik bilan bog'liq bo'ladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, investitsiyaviy loyihalarning turli tavsiflari turlicha aniqlik bilan prognoz qilinishi mumkin. Odatda kelajakdagi xarajatlarni baholashdagi xatolar, loyihani amalga oshirish muddatlarini belgilashdagi xatolarga nisbatan pastroq. Loyihani amalga oshirishni boshlash to'g'risida qaror qabul qilishda tavakkalchilik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Tavakkalchilikning yo'l qo'yiladigan darajasini belgilash har bir korxona uchun strategik muhim hisoblanadi.

Shuni aniq bilib olish kerakki, tavakkalchilik har doim mavjud va undan qochib qutulib bo'lmaydi. Tavakkalchilik turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Misol uchun, foydali qazilmalarni qazib olish sohasida loyihani amalga oshirish texnologik jihatdan mumkin emasligi shaklida, ilmiy-tehnika loyihalar uchun g'oyalarni samarasiz yoki eskirganligi shaklida, qishloq xo'jalik loyihalari uchun ob-havo sharoitlarini noqulay kelishi ehtimoli shaklida va hokazo.

Investitsiyaviy loyihaning amaldagi samaradorligiga, mamlakat iqtisodiyotida ro'y berishi mumkin bo'lgan inflyatsion jarayonlar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, ularni hisobga olish ayniqsa dolzarbdir.

Investitsiyaviy loyihalar murakkabligi va ularning majmuaviy xarakteri shunga olib keladiki, loyiha amalga oshirishning barcha sharoitlari va tavsiflarini rasmiy shaklda to'liq hisobga olish mumkin bo'lmaydi. Shu bilan birga loyiha ishtirokchilari manfaatlarining o'zaro mos kelmasligi, investitsiyaviy loyihalarni iqtisodiy baholashda bir nechta mezonlardan foydalanish zarurligiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aleksanov D.S., Koshelev V.M. Ekonomicheskaya otsenka investitsiy.-M.: Kolos-Press, 2002.-382s.
2. Jo'rayev A.S. va boshqalar Investitsiya loyihalari tahlili. O'quv qo'llanma. – T.: Sharq. 2003.
3. Ishmuxammedov A.E., Qosimov. M.S., Jumayev. Z.A., Jumayev Q.X. Loyiha tahlili. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.-T.: TDIU. 2004. -159 s.
4. «Investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 19.01.1998 y. № UP-1919. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
5. Vilenskiy P.L. V.N.Livshits., ye.R.Orlova, S.A.Smolyak. - Otsenka effektivnosti investitsionnoy proektov. - izdatelstvo «Delo» - M.: 1998.
6. Krushvich. L., Shefer D., Shvake M. Finansirovanie i investitsii. Sbornik zadach i resheniy/Per s nem.pod obhey red Sabova Z.A i Dmitrieva A.L.- SPb:Piter, 2001.
7. Lorens DJ. Gitman. Maykl D. Djonk. “Osnovi investirovaniya”.- M.: Izdatelstvo “Delo” 1997g. – 10-40 s.
8. Rustamova I.B. Issledovanie effektivnosti privlecheniya investitsiy v malom i srednem biznese. Diss.... kand.ekon.nauk. -T.: 2000. 245 s.
9. Samatov G.A va boshqalar. Investirovanie i proektniy analiz. Uchebnoe posobie. – T.: ToshDAU. 2006. 228 s
10. Starik D.E. Raschyoti effektivnosti investitsionnix proektov. Ucheb.posobie.-M.: ZAO «Finstatinform», 2001.-131 s.4.
11. «Chet el investitsiyalariga ega loyihalarni amalga oshirish mexanizmini rag'batlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida»gi 9.02.1998 y. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
12. www.agrobusiness.ru
13. www.timacad.ru
14. www.kubagro.ru